Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson qadri aziz!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 13-yanvar №1 (8019)

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

YURT TINCHLIGI, XALQ MANFAATI UCHUN VATAN POSBONLARI HAMISHA TILDA, FIKRDA, ISHDA HAMJIHAT BO‘LIB HARAKAT QILISHI ZARUR

SHAVKAT MIRZIYOYEV



MAMLAKATIMIZ HARBIY XAVFSIZLIGI VA MUDOFAASINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR VAZIFALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Vazirlar Mahkamasi a’zolari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, harbiy okruglar qo‘mondonlari, harbiy-ma’muriy sektorlar rahbarlari, boshqa idoralar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

O‘tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta’minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil oshirib borilmoqda, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanmoqda.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg‘ulotlar soni va shiddati 1,5 barobarga oshirildi, uchuvchisiz uchish apparatlari bo‘linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Armiyani raqamlashtirish bo‘yicha boshlangan ishlar natijasida axborot xavfsizligi, boshqaruv va ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta’lim tizimi tubdan yangilandi, malakali professor-o‘qituvchi va instruktorlardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Ta’lim jarayoniga o‘qitishning ilg‘or raqamli texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellektga asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgani harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yig‘ilishda mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Turli mintaqaviy mojarolar kengayib, qurollanish poygasi avj olayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqaro huquq normalari va xalqaro diplomatiya zaiflashib borayotgani qayd etildi.

– *Bir narsani tushunib olish zarur. Zamonaviy urush tabiati tubdan o‘zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g‘alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun’iy intellekt, raqamli boshqaruv, uzoq masofaga yuqori aniqlikda zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim asosida olib borilmoqda,* – dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois, tinchlik va xotirjamlik eng qimmat boylikka aylanayotganini bir daqiqa ham unutmaslik lozimligi ta’kidlandi. Bu boylikni asrab-avaylash uchun esa har bir soha va tarmoq xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarish bo‘yicha “proaktiv ish rejimi”ga o‘tishi shartligi ko‘rsatib o‘tildi.

Oliy Bosh Qo‘mondon kelgusi istiqbolga mo‘ljallangan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga ustuvor e’tibor qaratiladi.

– *Shuni unutmaslik kerakki, harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning asosiy shartidir,* – dedi Prezident.

Muddatli harbiy xizmat – faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o‘rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilishi zarurligi qayd etildi.

Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo‘lib chiqishi bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Harbiy qismlardagi asosiy yo‘nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo‘yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o‘tkazilib, ularga kasb sertifikati beriladi.

Har yili 5 ming askar saralab olinib, “Bir million dasturchi” va “Besh million sun’iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida o‘qitiladi.

Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida harbiy qismning o‘zida oliygohga o‘qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o‘qishini boshlaydi.

Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo‘lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikati olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontraktga kirsa, foizsiz ta’lim krediti ajratiladi.

Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatini 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o‘tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususiy sektorda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to‘lab beriladi.

– *Bir so‘z bilan aytganda, “muddatli harbiy xizmatni o‘tash – yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘li”ga aylanishi kerak,* – dedi Prezidentimiz.

Muhandislik-texnika, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekani ta’kidlandi. Shu bois, muhandislik-texnik yo‘nalishdagi harbiy-ilmiy bazani mustahkamlash, joylarda harbiy texnoparklar tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma’naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Bunda kitobxonlik muhim o‘rin tutadi. Shu bois, joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo‘naltirilgan maktab-litsey o‘quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o‘rtasida Oliy Bosh Qo‘mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo‘lga qo‘yiladi. Okrug, qo‘mondonlik, vazirlik, Oliy Bosh Qo‘mondon tanlovlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi.

Har yili harbiy xizmatchilar o‘rtasida ko‘pkurash, qo‘l jangi, og‘ir atletika kabi sportning 10 dan ortiq an’anaviy turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilmoqda. Endi joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi.

– *Mintaqaviy va global vaziyatni doimiy tahlil qilib borish, milliy armiyamizning salohiyatini mustahkamlash – bugungi kun talabi. O‘zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi, buning uchun tezkor, yuqori texnologiyali, yangi jang sharoitlariga mos bo‘lishi kerak,* – dedi Prezident.

Shu sababli, qo‘shinlarni sun’iy intellekt asosidagi robotlashgan majmualar va uchuvchisiz tizimlar, yengil harbiy texnika, zamonaviy qurol-aslaha, razvedka vositalari bilan jihozlashga alohida e’tibor qaratish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz mudofaa sanoatini yanada rivojlantirish, soha korxonalarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerakligini qayd etdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mutasaddilarga shaxsga doir ma’lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash topshirildi.

– *Harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash, ularning oila a’zolari va harbiy pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish doimo diqqat-e’tiborimiz markazida bo‘lishi zarur,* – dedi Prezidentimiz va bu borada katta yangiliklarni e’lon qildi.

Xususan, 1-apreldan boshlab Mudofaa vazirligi ofitserlariga ko‘p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshiriladi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik maoshi 10 foizga ko‘paytiriladi.

Hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo‘limlarining harbiy bo‘lmagan xizmatchilarining oyligi bu yil 20 foizga, kelasi yili yana 50 foizga oshiriladi.

Qurolli Kuchlar safida 30-yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdori 75 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy qurilishi kengaytiriladi.

Mas’ullarga harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minotini belgilaydigan qonun loyihasini ishlab chiqib, parlamentga kiritish topshirildi.

Zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko‘lami ham kundan kunga o‘zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo‘yilayotganini inobatga olib, davlatimiz rahbari sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish vaqti kelganini ko‘rsatib o‘tdi.

Yangi Mudofaa doktrinasi mamlakatimizni hech qaysi harbiy blogga qo‘shilmaslik maqomini saqlab qolishini, ko‘p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etishini, yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo‘nalishida rivojlanishini ta’minlashi lozimligi ta’kidlandi.

– *Umuman, yangi doktrina armiyani texnologik yangilash va ilg‘or harbiy yechimlarni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak,* - dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari yig‘ilish yakunida Qurolli Kuchlarimizning jasur askar va serjantlari, ofitser va generallari, faxriylari, ularning oila a’zolari va yaqinlarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabrikladi.

– *Sizlarning jasoratingiz, qasamyodga sadoqatingiz, el-yurt himoyasi yo‘lidagi fidoyiligingiz bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Go‘zal yurtimizda tinchlik-osoyishtalik va hamjihatlik doimo hukm sursin, jonajon Vatanimiz yanada mustahkam va barqaror bo‘lsin!* – dedi davlatimiz rahbari.

Yig‘ilishda mudofaa vaziri, harbiy okrug qo‘mondonlari va boshqa ma’sullarning hisobot hamda takliflari eshitildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

HARBIYLAR OILASI



O‘ngdan uchinchi Sherzod Jo‘rayev, o‘ngdan beshinchi Dilshodbek Jo‘rayev.

Harbiy xizmatchi bo‘lish o‘ziga xos sharaf. Bu kasbning chidamlilik va sidqidillikni talab qilishi ayni haqiqatdir. Milliy Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilib, o‘zi va oilasining xalq hurmatiga munosib ekanini isbotlayotgan yurtdoshlarimiz bisyor. Ana shundaylardan biri Zafar shaharchasida istiqomat qiladigan Jo‘rayevlar oilasi desak, xato bo‘lmaydi. Oilaning katta farzandi Sherzod Jo‘rayev Milliy armiyamizda 20 yillik tajribaga ega zahiradagi mayor. Taqdiri nega harbiy xizmat bilan bog‘langanini u shunday izohlaydi:

— Ziyoli oilada ulg‘ayganman. Dadam maktabda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bo‘lgani uchun oilamizda harbiylarga xos muhit hukmron edi. Tartib shunchalik qattiq ediki, ertalab badantarbiya qilish, sport to‘garaklariga qatnashish majburiy edi. Tomorqa va mol-holga qarashdan tashqari, ukam ikkimizga maktab darslarida a’lochi bo‘lish vazifasi ham yuklangandi. Ana shu qat’iy intizomli muhit kelajakda harbiy bo‘lishimni aniq qilib qo‘ygan ekan.

Maktabni bitirib, Toshkent Axborot Texnologiyalari Universitetining maxsus fakultetiga o‘qishga kirdim. Harbiy komandir sifatidagi faoliyatim 2003-yildan boshlandi. Respublikamizning turli hududlaridagi harbiy qismlarda aloqa sohasida guruh komandirligidan boshliqlikkacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdim. Hozir nafaqada bo‘lsam-da, xizmatdoshlarim va shogirdlarim bilan aloqamiz uzilgani yo‘q. O‘zim ishlagan sohadagi yangiliklar, islohotlardan xabardor bo‘lib, xursand bo‘laman. Harbiy sohadagi aloqa tizimi kundan kunga yangilanib, rivojlanib bormoqda. Bir paytlar biz uchun murakkabdek tuyulgan uskunalar hozirgi yoshlar uchun oddiy bo‘lib qolgan. Chunki ular o‘ta zamonaviy apparatlarda ishlashyapti.

“Ot izini toy bosar”, deganlaridek, qahramonimizning o‘g‘li ham harbiy sohani tanlagan. Dostonbek chegara qo‘shinlarida xizmat qilmoqda.

Jo‘rayevlar oilasining ikkinchi farzandi Dilshodbek Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonligi shtabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritadi. 2006-yilda akasi o‘qigan universitetni tamomlab, xizmatni Markaziy harbiy okrugda aloqa komandiri sifatida boshlagan Dilshodbek hozirda podpolkovnik. Salkam 20 yillik xizmat davrida Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugda, keyinchalik Sharqiy harbiy okrugda radiomarkaz rahbarligidan aloqa bo‘limi boshlig‘igacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. 2021-yildan buyon esa Qorovul qo‘shinlari safida xizmat qilmoqda.

— Bolaligimda sportchi yoki tadbirkor bo‘lishni orzu qilardim, — deydi Dilshodbek. — Keyinchalik akam harbiylik sari qadam qo‘ya boshlaganida qiziqishlarim ham o‘zgardi. Akamning formasi, har kuni quloqqa chalinadigan harbiycha nomlar va atamalar kelajagimni aniq belgilab berdi.

Dilshodbekni xizmatdoshlari o‘z ishini puxta egallagan komandir sifatida e’tirof etsalar, tanish-bilish va mahalladoshlar esa jiddiy, ammo xushmuomalaligi uchun hurmat qilishadi.

— Harbiy xizmatning yuki og‘ir, — deydi qahramonimiz. — Safarlar sabab oila davrasida kam bo‘lamiz. Kamiga bolalarning maktabi ham tez-tez o‘zgarib turadi. Ammo bu kasbni tanlaganimdan afsuslanmayman. Yaqinlarimning qo‘llab-quvvatlab turishi bilan barcha qiyinchiliklarni yengib ishlayapman. Kasbim tufayli o‘zimga yarasha obro‘-e’tibor orttirdim.

Dostonbek Ilhomjonov oilaning ikkinchi avlod harbiy xizmatchisi. U ham otasi Sherzod Jo‘rayev kabi Vatan himoyachisi degan sharafli kasbni tanlagan. Hozirda Termiz shahrida chegara qo‘shinlarida shartnoma asosida xizmat qilmoqda.

— Ota-onamning san’atga mehri boshqacha. Shuning uchun san’atkor bo‘lishimni xohlashardi, — deydi Dostonbek. — O‘zim ham musiqani, qo‘shiq aytishni yaxshi ko‘raman. Dadamning ishi sabab ko‘plab viloyatlardagi maktablarda o‘qiganman. Ammo qayerda o‘qisam ham, albatta, o‘sha joydagi san’at to‘garaklariga qatnashardim. Harbiy muhitda ulg‘ayganim uchun gitarani ham boshqacha yoqtirib qolganman. Dadamning hamkasblari davrasida gitara chalib, harbiycha qo‘shiqlarni ijro qilardim. Hamma qarsak chalib, olqishlasa, bolalarcha beg‘uborlik bilan maza qilardim. Do‘stlar davrasida, to‘y va tadbirlarda olqish olish rosa xush yoqardi.

Balog‘at yoshiga yetgach, san’atsevar Dostonbek ota kasbini tanlashga qaror qildi. Qurolli Kuchlar Akademiyasiga hujjat topshirdi. Ammo…

— O‘qishga kira olmagan yoshlarning ko‘pi ruhan tushkunlikka tushib qoladi. Ayniqsa, harbiylikni tanlaganlar uchun bu og‘ir botadi. Men ham bu holatni boshdan kechirdim. Keyin o‘zimni qo‘lga olishga qaror qildim. Armiyaga jo‘nadim.

Muddatli harbiy xizmatni chegara qo‘shinlarida o‘tagan Dostonbekka san’atsevarligi qo‘l keldi. Gitara chalib, qo‘shiq aytishni bilganligi sabab komandirlari nazarida “tilla bola”ga aylandi. Qasamyod qilinadigan kuni sahnada gitara chalib, kuylayotgan askarni tasavvur qilib ko‘ring!

— Xizmat davomida chegara qo‘shinlari askarlari o‘rtasida o‘tkazilgan musiqiy tanlovda gitara chalib, qo‘shiq aytib, 3-o‘rinni olganman, — deydi qahramonimiz g‘ururlanib.

Dostonbek bu yil Qurolli Kuchlar Akademiyasiga o‘qishga kirishni maqsad qilib qo‘ygan. Otasi va amakisi kabi zobit bo‘lib, Vatan xizmatida bo‘lishni astoydil niyat qilgan.

Albatta, yurtimiz tinchligi va farovon taraqqiyotida Qurolli Kuchlarimiz hamda ularning safida sidqidildan xizmat qilayotgan askarlarning o‘rni beqiyos. Bu ezgu jarayonga o‘z hissasini qo‘shayotgan bekobodlik yurtdoshlarimiz borligidan faxrlansak arziydi.

Madamin BOYMATOV.

Yoshlar va armiya

JASORAT SINFI – KELAJAK HIMOYACHILARI MAKTABI

Harbiy xizmat yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan maktab hisoblanadi. Bolalikdan harbiy hayotga tayyorlash esa kelgusidagi mashaqqat va sinovlarga bardoshli bo‘lishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Jasorat maktablari” tashkil etildi. Shu asnoda Bekobod tumanidagi 55-umumta’lim maktabida ham 2025–2026-o‘quv yilidan boshlab “Jasorat sinfi” o‘z faoliyatini boshladi.

Hozirda maktabning harbiylashtirilgan 5-sinfida 25 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Ularning 9 nafari qizlar ekani ham alohida e’tiborga loyiq.



“Jasorat sinfi” uchun alohida o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Umumta’lim fanlaridan tashqari, o‘quvchilar Qurolli Kuchlarimiz qo‘shinlarining turlari va tuzilishi, harbiy nizomlar, saflanish qoidalari, o‘qotar qurollar hamda harbiy texnika turlari bilan tanishmoqdalar. Shuningdek, chidamlilik, kuch, tezlik va chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan jismoniy mashqlarni bajarish ko‘nikmalarini ham o‘zlashtirmoqdalar.

Dastur asosidagi darslardan so‘ng turli sport to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu to‘garaklar tuman Bolalar sport maktabi bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Natijada o‘quvchilar sport musobaqalarining tuman va viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqdalar.

Xususan, “Jasorat sinfi”ning 8 nafar o‘quvchisi Milliy gvardiya tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Jasorat maktabi gvardiyachilari” harbiy-vatanparvarlik musobaqasining Toshkent viloyati bosqichida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, ushbu sinf o‘quvchisi Hojiakbar Zokirov muaytay sport turi bo‘yicha Osiyo chempionatida 3-o‘rinni egallab, bronza medal sohibi bo‘ldi va Jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

“Jasorat sinfi” maktabda yangi yo‘nalish bo‘lgani bois o‘quv-moddiy bazada ayrim yetishmovchiliklar mavjud. Shunga qaramay, imkoniyat doirasida qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar tayyorlanib, dars jarayonida foydalanilmoqda. Tuman Mudofaa bo‘limi hamda “Vatan tayanchi” guruhi tomonidan “Jasorat sinfi”ga qaratilayotgan e’tibor o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shahobiddin ESHONQULOV,
Bekobod tumani 55-umumta’lim maktabi
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash rahbari.

O‘ZBEK ASKARIGA

Vatan – mening qorachig‘im,
Kiprigisan, azizim,
Tinchlik degan bir manzilning
Ko‘prigisan, azizim.

Sarhadlarim osoyishta,
Uyg‘oqliging shundandir,
Beshikdagi go‘daklarning
Quvnoqligi shundandir.

Baxtiyorlar o‘lkasida
Sergak turgan ukamsan,
Vatan uchun metin qalqon,
Botirlikda ko‘rkamsan.

Vatan so‘zi – qasamyoding,
Ont ichgansan onam deb,
Har manzili, har go‘shasi
Mening aziz xonam deb.

Jaloliddin qoni jo‘shar,
Temur ruhi qo‘llaydi,
Shunday jasur ukalarga
She’r aytmasam bo‘lmaydi.

Jangovarlik zo‘r odating,
Shaylik unga jo‘r bo‘lar,
Saflaringga kirgan yigit
Qo‘rqmas bo‘lar, zo‘r bo‘lar.

Yovqurlarim, omon bo‘ling,
Shodlik sig‘mas ichimga,
Tinchlik degan xazinani
Bermagaymiz hech kimga!

Ashurali BOYMUROD.

Top-ART – 2025



SULTONBOY DEHQONOV: “YIL FOTORASSOMI”

Poytaxtimizdagi Markaziy ko‘rgazmalar zalida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasining yil yakuniga bag‘ishlangan “Top-ART – 2025” respublika tanlovi bo‘lib o‘tdi. Unda yurtimiz tasviriy va amaliy san’ati rivoji yo‘lida faol ijod qilib kelayotgan fidoyi soha vakillari turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘olib sifatida munosib taqdirlandilar.

O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, fotorassom, jurnalist, bekobodlik Sultonboy Dehqonov ham zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atini keng targ‘ib qilishdagi xizmatlari uchun Uyushmaning Oltin medali sohibi hamda “Yil fotorassomi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

G‘oliblarga maxsus diplom va sovrinlarni O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, xalq rassomi, akademik Akmal Nur hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi, akademik I.Valixo‘jayev tantanali ravishda topshirdilar.

Sultonboy Dehqonovni ushbu yuksak e’tirof bilan chin dildan tabriklaymiz. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atining yorqin ifodasi bo‘lib, yosh ijodkorlar uchun ham munosib ibrat maktabi hisoblanadi. Kelgusida ham sermahsul ijod, yangi yutuq va zafarlar, san’at olamida yanada baland marralarni zabt etishini tilaymiz. Shuningdek, tanlovda g‘olib bo‘lgan barcha ijodkorlarga yangi yilda ilhom, sog‘lik va ulkan muvaffaqiyatlar yor bo‘lishini tilab qolamiz.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Axborot xizmati.

FUQARO MUHOFAZASI

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH — HAR BIRIMIZNING MUHIM VAZIFAMIZ



Bugungi kunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Tabiiy ofatlar, yong‘inlar, gaz va elektr bilan bog‘liq nosozliklar hamda texnogen hodisalarning aksariyati inson omili — beparvolik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga kelmoqda.

Shu bois yurtimizda har yili “Xavfsiz xonadon” oyligi o‘tkazilib, uning doirasida aholi o‘rtasida profilaktik tadbirlar kuchaytiriladi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi turar joylarda xavfsizlik choralarini mustahkamlash, fuqarolarning favqulodda vaziyatlarga nisbatan hushyorligini oshirishdan iborat.

Oylik davomida xonadonlarda elektr, gaz va isitish tizimlarining texnik holati o‘rganilib, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi nazoratga olinadi. Shuningdek, aholiga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilib, bolalar va keksalar bilan alohida profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur tavsiyalar beriladi.

“Xavfsiz xonadon” oyligi — bu faqatgina bir martalik tadbir emas, balki har bir fuqaroning kundalik hayotida mas’uliyat va ogohlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbusdir. Xavfsizlik qoidalariga doimiy amal qilish orqali biz o‘zimizni, yaqinlarimizni va jamiyatni turli favqulodda vaziyatlardan asraymiz.

Unutmang: ogohlik va ehtiyotkorlik — tinch va xavfsiz hayot garovidir.

Nuriddin KAMILOV,
Bekobod tumani FVB
FVPB kichik inspektori, serjant.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

BOTULIZM – HAYOT UCHUN XAVFLI

Botulizm – og‘ir turdagi ovqatdan zaharlanish bo‘lib, sifatsiz tayyorlangan pomidor, bodring, patisson, baqlajon ikrasi va boshqa konserva mahsulotlarini iste’mol qilish natijasida yuzaga keladi. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, botulizm kasalligi 10% gacha o‘lim bilan tugaydi.

Botulizm qo‘zg‘atuvchisi tashqi muhitda keng tarqalgan, yuqori haroratga chidamli klostridiya bakteriyalaridir. Bu bakteriyalar kislorodsiz sharoitda ko‘payadi va o‘zidan asab tizimini zararlovchi zahar (neyrotoksin) ishlab chiqaradi. Yetarli darajada termik ishlov berilmagan konserva mahsulotlarida bakteriyalar ko‘payib, ko‘plab miqdorda neyrotoksin yig‘ilib qoladi.

Bakteriyalar bilan zararlangan konserva mahsulotlarining rangi, hidi va ta’mi o‘zgarmaydi, faqat gaz hisobiga qopqog‘i ko‘tarilib qoladi. Bunday konserva mahsulotini iste’mol qilgandan so‘ng, kasallikning birinchi belgilari o‘rtacha 12–36 soat ichida boshlanadi (ba’zi hollarda 4 soatdan 8 kungacha cho‘zilishi mumkin).

Kasallikning erta belgilari – tez charchash, holsizlik, bosh aylanishi; keyinchalik ko‘rishning xiralashishi, og‘iz qurishi, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, buyumlarning ikkita bo‘lib ko‘rinishi, ko‘z qovog‘ining osilishi, ovoz bo‘g‘ilishlari paydo bo‘ladi. Bunday belgilar kuzatilganda darhol shifokorga murojaat qilish zarur.



Bemorning tana harorati ko‘tarilmaydi va hushini yo‘qotmaydi. Agar o‘z vaqtida shifokorga murojaat qilinmasa, kasallik rivojlanib, bo‘yin, qo‘l va tana mushaklarining falajiga olib keladi va buning natijasida nafas olish qiyinlashadi. Bu kasallik odamdan odamga yuqmaydi.

Bunday holatga tushib qolmaslik uchun uy sharoitida turli xil konserva mahsulotlarini tayyorlamaslik va sifati kafolatlanmagan konserva mahsulotini iste’mol qilmaslik kerak. Bozor va do‘konlardan uyda tayyorlangan konserva mahsulotlarini xarid qilmaslik, do‘konlardan mahsulot sotib olayotganda yorlig‘i, ishlab chiqaruvchi korxona nomi, ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati va qopqog‘ining holatiga e’tibor berish zarur.

Kasallikni davolashdan ko‘ra, uni oldini olish afzal. Sog‘liq – biz uchun berilgan eng katta boylik ekanligini unutmasligimiz zarur.

Xayrullo TURSUMMATOV,
Bekobod tumani Sanepid bo‘limi sanitariya shifokori.

MUTAXASSIS FIKRI

HARAKATSIZ HAYOT - SOG‘LIQ DUSHMANI



Ortiqcha vaznga ega bo‘lgan insonlar, ayniqsa 40 yoshdan keyin, organizmda modda almashinuv jarayonlari buzilishi bilan bog‘liq bir qator og‘ir kasalliklarga duchor bo‘lish ehtimoli yuqori. Semirishga moyil kishilar orasida qon tomirlari aterosklerozi 2 baravar, qon bosimining ko‘tarilishi 3 baravar, qandli diabet 4 baravar, o‘t-tosh kasalligi 6 baravar, poliosteoartroz 4 baravar, podagra 3 baravar va venalarning varikoz kengayishi 2–3 baravar ko‘proq uchrashi aniqlangan.

Semirishga olib keluvchi asosiy omillar orasida avvalo ovqatlanish me’yorlariga rioya qilmaslik va kamharakatlik turibdi. Kamharakatlik esa, uzluksiz ravishda asabiy va ruhiy holatning zo‘riqishi, organizm faoliyatining surunkali charchashi va buzilishiga, mehnat qobiliyatining pasayishiga hamda barvaqt qarishga olib keladi.

Shuningdek, kamharakatlik organizmning zaxiraviy imkoniyatlarini kamaytiradi, tana a’zolari, mushaklar, ichki a’zolar, skelet va, ayniqsa, markaziy asab tizimi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, ayrim odamlar o‘zini avaylab, jismoniy faollikdan qochish orqali salomatliklari uchun katta zarar keltirayotganlarini anglamaydilar.

Holbuki, faqat serharakatlik va turli xil jismoniy mashqlar orqali har bir kishi o‘z salomatligi uchun olishi mumkin bo‘lgan foydali natijalarga erishadi. Dori-darmonlar yoki boshqa vositalar buni ta’minlay olmaydi. Jismoniy faollik organizmning zaxiraviy imkoniyatlarini safarbar qilishning eng samarali yo‘lidir. Semirish va kamharakatlikning oldini olish va davolashning asosiy shartlari — energetik qiymati va tarkibi jihatidan ratsional va organizm ehtiyojiga mos ovqatlanish hamda mehnat qilish va dam olishning uyg‘unligidir.

Tojixon TOLIPOVA,
Salomatlik va strategik rivojlanish instituti, Bekobod tuman bo‘limi shifokori.

Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q

Shavkat Mirziyoyev

ZAMONAVIY TA’LIM



KICHIK YOSH – KATTA IMKONIYAT: MAKTABGACHA TA’LIM VA XORIJIY TILLAR

Globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish bolalar uchun muhim ko‘nikma bo‘lib, maktabgacha yoshdan chet tillarni o‘rgatish ularda kognitiv jihatdan diqqat, xotira va muammo hal qilish qobiliyatini oshiradi, ijtimoiy-madaniy tomondan esa madaniyatlararo tushunish va empatiyani rivojlantiradi. Dunyo olimlari fikricha, 10 yoshgacha bola chet tillarini oson o‘zlashtiradi, chunki bu davrda til mexanik tarzda o‘rganiladi va talaffuzni shakllantirish qulayroq bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlar ikki tillilikning miya faoliyatini yaxshilashini tasdiqlaydi.

Shu tufayli ham O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim Uchinchi Renessansning muhim halqasi sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”.

Natijada so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalari soni olti barobarga ko‘paydi. Tarbiyachi va pedagoglar soni ham uch barobarga oshib, 160 ming nafarga yetdi. Shu tariqa, bog‘cha yoshidagi 2 million 800 ming nafar boladan 2 million nafari maktabgacha ta’lim bilan qamrab olindi. Bu jarayonda xorijiy tillarni o‘rgatish alohida o‘rin tutmoqda. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga muvofiq, ingliz tili mashg‘ulotlari haftasiga ikki marotaba o‘tkazilishi bu siyosatning yaqqol dalilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda o‘yin faoliyati ustuvor hisoblanadi. O‘yin bolada o‘ziga ishonchni kuchaytirib, ko‘rish va eshitish sezgilarini rivojlantiradi. Ta’limiy o‘yinlar — raqslar, videoroliklar tomosha qilish, didaktik o‘yinlar, qo‘l mehnati kabi metodlar bolalarning tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bog‘chalar davlat hisobidan har yili ajratilayotgan mablag‘lar evaziga xorijiy tillarni samarali o‘rganish uchun zarur jihozlar bilan ta’minlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori (2021) xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, malakali pedagoglarni jalb etish va bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishni nazarda tutadi. Vazirlar Mahkamasining 312-sonli qarori (2021) esa xorijiy tillarni o‘qitish sifatini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqladi. Davlat rahbari nutqlarida dunyodagi millionlab bolalarning ta’lim olish imkoniyatlari cheklangani, O‘zbekistonda esa “inson qadri – oliy qadriyat” tamoyili asosida munosib sharoitlar yaratilayotgani alohida ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda xorijiy tillarni o‘rgatish bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojiga xizmat qilib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosati va ta’lim islohotlari Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlab, kelajak avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga zamin yaratmoqda.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,

Shahlo SALOHIDDINOVA,
TDSHU amaliy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi.

PEDAGOG MINBARI

BILIM, IQTIDOR VA KELAJAK CHORRAHASI

Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. Mazkur ta’lim maskani iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va tanlab o‘qitish, ularning intellektual, ilmiy hamda ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan. Maktabda tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalari chuqur o‘rgatiladi, zamonaviy baholash uslublari hamda fanlararo yondashuv joriy etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning xalqaro olimpiada va tanlovlardagi ishtiroki, vatanparvarlik va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanishi muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabida 362 nafar o‘quvchi ta’lim oladi. 31 nafar asosiy va 4 nafar yuqori malakali o‘qituvchi ishlaydi, shulardan 86% oliy toifali bo‘lib, barcha pedagoglar xalqaro va milliy sertifikatlarga ega.

Maktabda IELTS, SAT, Multilevel, umumta’lim fanlari bo‘yicha milliy sertifikatlar, shuningdek, robototexnika, sun’iy intellekt va shaxmat fakultativlari tashkil etilgan. Bitiruvchilar 11-sinf yakunida milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lib, OTMlarga 100% davlat granti asosida qabul qilinmoqda.

Muassasada “Maktab maslahatchisi” (School Counselor) dasturi faoliyat yuritadi. Dastur o‘quvchilarga individual ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha maslahatlar berish, dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan tanishtirish, oliygohlarga hujjat topshirish va ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha tavsiyalar hamda ehtiyoj yuqori bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish imkonini yaratadi.

Maslahatchi, shuningdek, sohada muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislar bilan uchrashuvlar, qiziqish bildirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy ekskursiyalar, va maktab psixologi bilan hamkorlikda o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidoriga mos keladigan hayotiy yo‘nalishlarni tanlashlariga yordam beradi. Shu orqali maktab bitiruvchilari o‘z bilim va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarib, kelajak kasb va ta’lim tanlovlarini ongli amalga oshiradi.

Maktab hozirgi kunda O‘zbekistondagi bir qator oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan. Jumladan, New Uzbekistan University, Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent davlat pediatriya universiteti, Turin politexnika universiteti, Amity universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Farmatsevtika texnika universiteti hamda Westminster universiteti shular jumlasidandir.



Maktab jamoasining mehnatlari o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Jumaladan, 2023–2024-o‘quv yilida maktab bitiruvchilarining barchasi oliy ta’lim muassasalariga 100 foiz qabul qilindi. Bundan tashqari, ilk bitiruvchilarimiz dunyoning nufuzli universitetlarida o‘qish uchun yirik miqdordagi grantlarni qo‘lga kiritdi. Xususan, AQSHdagi North Dakota University, Arizona State University, Wingate University hamda Constructor Universityga qabul qilingan o‘quvchilarimiz jami 790 ming AQSH dollari miqdorida grant yutishga muvaffaq bo‘ldi.

2024–2025-o‘quv yilida maktab o‘quvchilarining 18 nafari asosiy fan olimpiadalarining tuman bosqichida g‘olib bo‘lib, shundan 9 nafari birinchi, 7 nafari ikkinchi va 2 nafari uchinchi o‘rinni egallab, viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi. Viloyat bosqichida esa 2 nafar o‘quvchi ikkinchi, 1 nafari uchinchi, 4 nafari to‘rtinchi o‘rinni egallab, kuchli o‘ntalikdan joy oldilar.

Shuningdek, “Besh tashabbus” hamda “Umid nihollari” sport musobaqalarida tuman ixtisoslashtirilgan maktabi o‘quvchilarining 3 nafari shaxmat bo‘yicha, 2 nafari stol tennisi bo‘yicha, yana 2 nafari yengil atletika bo‘yicha birinchi o‘rinni egallab, viloyat bosqichiga yo‘llanma oldi. Bundan tashqari, 11-sinf o‘quvchilaridan biri xalqaro geografiya olimpiadasida qatnashish huquqini qo‘lga kiritdi.

2024–2025-o‘quv yilida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar o‘rtasida o‘tkazilgan “Robo-Coding” olimpiadasining viloyat bosqichida maktabning 5 nafar o‘quvchisi birinchi o‘rinni egallab, respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Xulosa qilib aytganda, Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabida yaratilgan zamonaviy ta’lim muhiti, malakali pedagoglar va samarali hamkorliklar o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishiga xizmat qilmoqda. Bitiruvchilarning 100 foiz oliy ta’limga qabul qilinishi va xalqaro miqyosdagi yutuqlari maktab faoliyatining yuksak samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Sanjar SULTONOV,
Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

ERTAKLARDA ULG‘AYGAN AVLOD



Bugungi kunda yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda turli millat ertaklarining o‘rni beqiyosdir. Ertaklar bolalarni yaxshilikka, halollikka, mehnatsevarlikka, ona tabiatni asrashga, ezgulikka va do‘stlikka chorlab, ularning dunyoqarashini boyitadi. Shuningdek, ertaklar bolalarning tasavvuri, tafakkuri va nutqini shakllantirish hamda rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Shu maqsadda Bekobod tumani 55-umumta’lim maktabining 3-“A” sinf o‘quvchilari ishtirokida “Ertaklarda ulg‘aygan avlod” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir ertaklar ruhiga mos tarzda bezatilgan sinf xonasida o‘tkazildi. O‘quvchilar sevimli ertak qahramonlari libosida ishtirok etib, o‘zlari chizgan ertak qahramonlari rasmlari hamda ota-onalari yordami bilan tayyorlangan qo‘l mehnati o‘yinchoqlarini namoyish etdilar. Turli millat ertak qahramonlari o‘quvchilar tomonidan jonlantirilib, ularning mazmun-mohiyati ochib berildi.

Shuningdek, tadbir davomida ertaklarga oid ko‘rgazmalar, milliy buyumlar va bolalar ijodiy ishlari namoyishi tadbirga o‘zgacha fayz bag‘ishladi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, jamoada erkin ishlash ko‘nikmasi hamda kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Mazkur tadbir o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda ertaklar orqali ezgulik g‘oyalarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Dilorom USMANOVA,
Bekobod tumani 55-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

DAVR NIGOHI

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har qanday buyuk yuksalish va davriy burilishlar, avvalo, ma'naviy-madaniy uyg'onish hamda tarixiy ildizlarga qaytishdan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki jamiyatning intellektual va madaniy qiyofasini ham tubdan o'zgartirishni maqsad qilgan. "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans sari" g'oyasi mamlakatimizning uzoq yillik tarixiy tajribasi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari poydevoriga tayanadi. Ushbu jarayonda tarixiy meros shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki kelajakni qurish uchun kuch-quvvat manbai, jamiyatni birlashtiruvchi g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



TARIXIY MEROS VA MADANIY UYG'ONISH: YANGI DAVR BOSQICHI

Globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish va madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar yordamida kelajak avlodga bezavol yetkazish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, madaniy uyg'onishsiz barqaror iqtisodiy o'sishga va ma'rifatli jamiyat qurishga erishib bo'lmaydi.

Mazkur mavzu doirasida xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o'rganildi. Xususan, Sharq Renessansi tushunchasi va uning metodologik asoslari E.Bertels, I.Mo'minov va keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan keng yoritilgan. Madaniy merosni boshqarish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda UNESCO ekspertlarining xalqaro tavsiyalari hamda Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asaridagi konseptual g'oyalar metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-statistik hamda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ishda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Madaniy meros agentligining rasmiy hisobotlari asos qilib olindi. Tizimli yondashuv orqali tarixiy merosning bugungi kunda madaniy uyg'onishga ta'siri vertikal va gorizontal kesimlarda tahlil etildi.

O'zbekiston hududida 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning saqlanishi va restavratsiyasi davlat nazoratiga olingan. So'nggi besh yillikda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish uchun ajratilayotgan mablag'lar miqdori uch barobarga oshdi. Natijada nafaqat moddiy yodgorliklar, balki baxshichilik, maqom san'ati kabi nomoddiy meros namunalarini qayta tiklash bo'yicha xalqaro festivallar an'anaga aylandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniy uyg'onish jarayoni raqamlashtirish bilan hamohang bormoqda. "Smart-muzey" texnologiyalarining joriy etilishi natijasida yoshlarning tarixga bo'lgan qiziqishi ortgan. Shuningdek, O'zbekistonning madaniy diplomatiyasi jahon miqyosida yangi bosqichga ko'tarilib, mamlakatimiz "Islom dunyosi madaniyati poytaxti" kabi nufuzli maqomlarga sazovor bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, tarixiy meros va madaniy uyg'onish o'rtasidagi uzviylik Yangi O'zbekistonni barpo etishning ma'naviy drayveridir. Birinchidan, madaniy merosni asrash — bu shunchaki bino yoki ashyoni saqlash emas, balki milliy ruhni va davlatchilik an'analarini asrash demakdir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda "o'tmishga ehtirom, kelajakka ishonch" tamoyilini mustahkamlamoqda.

Ikkinchidan, Uchinchi Renessans poydevorini qurishda yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish uchun tarixiy tajribadan oqilona foydalanish zarur. Bu jarayonda biz ajdodlarimiz yaratgan ilmiy va ma'naviy xazinani nafaqat o'rganishimiz, balki uni zamon talablariga mos ravishda boyitib borishimiz shart.

Uchinchidan, madaniyat va san'at sohasidagi yangi yuksalish bosqichi mamlakatning xalqaro imidjini tubdan yaxshilaydi va iqtisodiy jihatdan turizm industriyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tarixiy adolatni tiklash va buyuk siymolarimiz nomini jahon sahnasiga qaytarish milliy g'ururni shakllantirishda bosh mezon bo'lib qoladi.

Kelajakda madaniy meros ob'ektlarini to'liq raqamli pasportlashtirish, har bir tuman va qishloqning "madaniy brendi"ni yaratish hamda ta'lim tizimida Renessans g'oyalarini chuqur integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, ma'naviy boy va madaniy yuksak xalqni hech qachon yengib bo'lmaydi va bunday jamiyat doimo taraqqiyotning yuqori cho'qqilarini zabt etaveradi.

Zilola TOIROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti amaliy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi.

AXBOROT JAMIYATI

BUGUN INTERNET, ERTAGA TARAQQIYOT: "RAQAMLI O'ZBEKISTON" YO'LI



XXI asr taraqqiyoti bevosita raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Bugun internet, mobil aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, bank tizimi va kundalik hayot tobora raqamli muhitga ko'chmoqda. Shunday bir davrda raqamli transformatsiya endi tanlov emas, balki taraqqiyotning muqarrar sharti bo'lib bormoqda.

Bu jarayondan O'zbekiston ham chetda qolmadi. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatni zamonaviy raqamli davlatga aylantirish, elektron hukumatni rivojlantirish, IT sohasiga sarmoya jalb etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni maqsad qilib qo'ydi. Strategiyaning asosiy g'oyasi — davlat xizmatlarini soddalashtirish, iqtisodiy taraqqiyotga yangi turtki berish va aholining hayot sifatini oshirishdan iborat.

Raqamli islohotlarning poydevori — sifatli internet. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 94 foizdan ortig'i internetdan foydalanmoqda. Mobil aloqa abonentlari soni qariyb 34 million kishiga yetib, aholining deyarli 92 foizini qamrab olgan. Optik tolali aloqa liniyalarining kengaytirilishi va yangi baza stansiyalarining qurilishi internet tezligi hamda sifatining sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Xalqaro Speedtest Global Index reytingiga ko'ra, 2025-yilda yurtimizda mobil internet tezligi o'rtacha 55 Mbit/s, statsionar internet tezligi esa 86 Mbit/s ga yetgan. Bu ko'rsatkichlar so'nggi besh yilda deyarli ikki baravarga oshgan. Shunga qaramay, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi internet sifati tafovutlarini bartaraf etish hanuz dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Davlat boshqaruvida ham raqamlashtirish jarayoni izchil davom etmoqda. Bugungi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yuzlab xizmatlar onlayn ko'rsatilmoqda. 2024-yil yakuniga kelib, davlat xizmatlarining qariyb 70 foizi to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Bu esa byurokratik to'siqlarni kamaytirib, vaqt va mablag'ni tejash imkonini bermoqda.

Raqamli infratuzilmaning kengayishi IT sohasining jadal rivojlanishiga ham sabab bo'ldi. IT Park Uzbekistan ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda IT xizmatlari eksporti 1 milliard AQSh dollariga yaqinlashdi. Yuzlab startaplar faoliyat boshladi, minglab yoshlar esa masofaviy ishlash orqali xalqaro bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Biroq raqamli taraqqiyot bilan birga qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Hududlar o'rtasidagi texnologik tafovut, raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash va kiberxavfsizlik masalalari dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, ayrim an'anaviy kasblar qisqarib, yangi kasblarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha barcha hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olish, IT-ta'limni kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash belgilangan. Ushbu maqsadlar amalga oshsa, O'zbekiston zamonaviy va raqobatbardosh raqamli iqtisodiyotga ega davlatga aylanishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi oddiy texnologik loyiha emas, balki jamiyat, iqtisodiyot va davlat boshqaruvini tubdan o'zgartiruvchi keng ko'lamli islohotdir. Bugungi raqamli imkoniyatlar ertangi taraqqiyotning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Salomatbonu ERKINOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti amaliy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi.

TEMURIYLAR MEROSI

BIBIXONIM: SALTANAT, TAFAKKUR VA ABADIYAT

Tarix sahifalari odatda saltanatlar va sarkardalarning nomlari bilan to'ldiriladi. Biroq o'tmish sahnasida shunday ayollar borki, ularning nomi qudratli saltanatlar bilan yonma-yon tilga olinadi va sharafiga asrlarni oshib o'tgan mahobatli imoratlar qad rostlaydi. 1341-yilda tug'ilgan, Chingiziylar avlodiga mansub Chig'atoy ulusi xoni Qozonxonning qizi Saroymulkxonim ushbu ta'rifga to'laqonli mos bo'lgan temuriy malikadir.

Dastlab Movarounnahr hukmdori Amir Husayn ibn Musallabga, keyinchalik esa uning o'limidan so'ng Amir Temur nikohiga olingan Saroymulkxonim saltanat ishlarida hamda mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol o'rin tutgan. Shuningdek, Temur Samarqanddan uzoqda bo'lgan paytlarda, uning g'arbiy yurishlari sababli, ba'zan vaqtincha hukmdor sifatida ham faoliyat yuritgan. Manbalarda keltirilishicha, hukmdorning bosh rafiqasi sifatida Saroymulkxonim Chingizxonning bosh rafiqasi Bortaga berilgan unvonga o'xshash "Buyuk xonim" unvoniga ham ega edi.

1404-yilda Kastiliya qiroli Genrix III tomonidan Temur saroyiga yuborilgan ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo safarnomasida Saroymulkxonim Amir Temurning eng ulug' va e'zozlangan rafiqasi sifatida tasvirlanadi. U saroyda alohida hurmatga ega bo'lib, marosimlarda Amirga teng darajada izzat-ikrom bilan qarshi olingan. Elchi malikaning tantanali yurishini ham batafsil tasvirlaydi: u qizil ipak libosda, yuzini oq ro'mol bilan yopgan holda, qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezatilgan bosh kiyimda namoyon bo'lgan. Libosining etagini ko'plab xizmatkorlar ko'tarib borgan, noodatiy bezatilgan murakkab bosh kiyimi tik turishi uchun esa unga uch nafar xizmatkor hamrohlik qilgan.

Xo'sh, malikaning Amir Temur uchun qadrli bo'lishiga faqat uning husn-u latofati sabab bo'lganmidi? Aksincha. Yuksak idroki va tadbirkorona yechimlari tufayli Saroymulkxonimga tez orada saroyda "Katta xonim" yoxud "Bibixonim" maqomi beriladi. Bibixonimning qanchalik tadbirli ayol bo'lganini Amir Temurning Eronga bo'lgan yurishida yana yaqqol ko'rish mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, sarkardaning Isfahonga bo'lgan qamali biroz vaqt oladi va qo'shin ehtiyojlari uchun mablag' tugaydi. Sohibqiron tezda Bibixonimga maktub yozib, saroy xazinasidan zar jo'natishni buyuradi. Buni o'qigan malika xuddi o'sha maktub ortiga: "Ey ulug' Amir! Pulingiz tugab, siyosatingiz ham tugadimi?" — deya javob yo'llaydi.

Bu kinoyaviy xabarni o'qigan Temur biroz o'ylanib turadi va askarlar yegan qo'y, mol, tuya suyaklarini to'plattirib, ularni kesishni buyuradi. Ularga o'z muhrini bosib, kichik suyakka kichik narx, katta suyakka katta narx belgilab, pul miqyosiga olib chiqadi va atrofdagi shaharlardan askarlar uchun yeguliklar sotib olinadi. Isfahon to'liq zabt etilgach, xazinaga to'plangan oltinlar suyak pullarga almashtirilib, muomaladagi tartib yana avvalgi holiga qaytariladi.

Bibixonimning bu tadbirkorona yechimi uning faqat oilaviy maslahatchi emas, balki davlat manfaatlarini chuqur anglay olgan siyosiy shaxs ekanini ko'rsatadi. Bunday tafakkur esa faqat qisqa muddatli foydani emas, balki jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotini ko'zlashni ham talab etardi. Shu bois malika o'z ta'sirini faqat siyosiy qarorlar bilan cheklamay, ilm-fan va ma'rifatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirdi. U asosan homiylik va siyosiy-madaniy ta'sir orqali ilm-ma'rifatni va tolibi ilmlarni rag'batlantirgan.

Garchi Bibixonimga onalik nasib etmagan bo'lsa-da, zukko va oqilaligi sabab Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Ulug'bek kabi temuriyzodalar tarbiyasi bevosita unga topshirilgan. Bu ishonch uning nomini nafaqat saroy xotirasida, balki Samarqand osmonida qad rostlagan muazzam inshootlar orqali ham abadiylashtirdi.

Bugungi kunda Bibixonim nomi ko'pincha Samarqanddagi shu nomdagi masjid bilan bog'lanadi. Manbalarga ko'ra, Bibixonim jome masjidi Amir Temurning buyrug'i bilan hijriy 801-yilda (1399) qurila boshlangan. Biroq Sohibqiron Hindiston yurishidan qaytgach, hijriy 807-yilda (1404) masjid hajmi va bezaklaridan norozi bo'lib, uni yanada ulkan va mahobatli ko'rinishda qayta qurdirishni buyurgan.

Ruy Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, Amir Temur bu jarayonda shaxsan o'zi ham qatnashib, qurilish ishlarini tezlashtirishni talab qilgan. Ammo 1405-yilda Temurning vafoti sabab masjid to'liq yakunlanmay qolgan. Keyinchalik XV asrda temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bek davrida inshootning ayrim qismlari mustahkamlanib, foydalanishga yaroqli holga keltirilgan.

Bibixonim jome masjidi o'z miqyosi va me'moriy yechimi bilan temuriylar davri me'morchiligining eng yirik va nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Sharafiddin Ali Yazdiy ma'lumotlariga ko'ra, masjid bezaklarini yaratishda Ozarbayjon, Fors va Hindistondan kelgan ikki yuz nafarga yaqin mohir usta ishtirok etgan. Qurilish materiallarini Samarqandga yetkazishda esa to'qson besh nafar fil ishlatilgani qayd etiladi. Masjidning toshdan ishlangan ulkan darvozasi XIX asr oxirlariga qadar saqlanib kelgan bo'lsa, qibla gumbazli xonaga kirish qismidagi poydevor yozuvi hozirgi kungacha yetib kelgan.

Saroymulkxonim Amir Temur vafotidan keyin ham temuriylar xonadonining ramziy ustuni bo'lib qoldi. Biroq tarix sahifalari uning so'nggi kunlari haqida sukut saqlaydi. Manbalarda faqat uning 1408-yilda Samarqandda vafot etgani qisqacha qayd etiladi. Ammo uning nomi Samarqand osmonida qad rostlagan obidalar va temuriylar xotirasida hanuz yashab kelmoqda.

Nigora AHMADJONOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti amaliy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi.

Yuqoridagi maqolalar Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti Valisher Abirov hammuallifligida tayyorlandi.



JADIDLAR HAYOTIGA BIR NAZAR

JADIDCHILIK HARAKATINING AYOLLAR TA’LIMIGA MUNOSABATI

Agar ayollarimiz o‘qimasa, millatimiz hech qachon ilg‘or bo‘la olmaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, xususan, Turkiston jamiyati hayotida tub burilishlar davrini boshdan kechirdi. Bu harakatning asosiy maqsadi — millatni jaholatdan, ijtimoiy qoloqlikdan, mustamlakachilik zulmidan ozod etish, ilm-ma’rifat orqali milliy o‘zlikni uyg‘otish edi. Taraqqiyotning bu bosqichiga chiqish uchun jadidlar zamonaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish zarurligini yaxshi anglashardi. Bu yo‘lga erishish jarayonida ular erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham ilm olish huquqini ta’minlashga alohida e’tibor qaratdilar.

O‘sha davrda ayollar taqdiri, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi, ta’lim olish imkoniyatlari nihoyatda cheklangan edi. Qizlar jamoatchilik hayotidan, o‘qishdan chetda qoldirilib, faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatida ko‘rilgan. Shu sababli jadidlar ayollarga nisbatan bunday munosabatni millat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illat deb baholashgan. Ularning nazarida, xalqning ma’naviy yuksalishi ayollarning ilmli bo‘lishiga chambarchas bog‘liq edi.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlar qizlar uchun maktablar ochish va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni tashkillashtirdilar. Ular “ta’lim — millat hayoti”, “ayol — millat tarbiyachisi” degan g‘oyalarni ilgari surib, ularni xalq orasida keng yoyishga harakat qildilar, yangi usul maktablari, teatr asarlari, darsliklar va matbuot nashrlarini tashkil etdilar.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati tufayli ko‘plab Turkiston o‘g‘il-qizlari Yevropa davlatlariga borib tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Yoshlarning chet elda o‘qishlariga yordam berish maqsadida bir qator tashkilotlar tuzildi. Ular orasida 1922-yilda tashkil topgan “Ko‘mak” jamiyati talabalarni Germaniyada tahsil olishlari uchun moddiy yordam ko‘rsatgan.

Tabiiyki, o‘sha yoshlar orasida jamiyatdagi qarshiliklarga qaramasdan ilm yo‘lini tanlagan ayol-qizlarimiz ham talaygina edi. Ana shunday qizlardan biri — Maryam Sultonmurodova asli xorazmlik bo‘lib, 1905-yil 13-fevralda “Yosh xivaliklar” harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. U Mulla Jumaniyoz xonadonida, ziyoli oilada voyaga yetgan. Dastlab Urganch va Toshkentda, keyinchalik Orenburg hamda Germaniyada o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan kam sonli o‘zbek ayollaridan biri hisoblanadi.

Maryam Sultonmurodova Xorazmda ayollar bo‘limiga rahbarlik qilib, xotin-qizlarni savodli qilish, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish yo‘lida fidokorona mehnat qilgan. Biroq uning ilmli va erkin fikrli bo‘lishi sovet davrida qatag‘onga uchrashiga sabab bo‘ladi: u bir necha bor asossiz ayblovlar bilan qamoqqa olinib, surgun qilinadi. Og‘ir sinovlarga qaramasdan, u o‘z e’tiqodi va ma’rifatparvarlik yo‘lidan qaytmagan. 1957-yilda rasman oqlangan bo‘lsa-da, umrining katta qismi iztirob va adolatsizliklar ichida o‘tgan. Maryam Sultonmurodovaning hayoti va faoliyati bugun ham o‘zbek ayollarining ilm, taraqqiyot va erkin fikr yo‘lidagi kurashining yorqin timsoli sifatida qadrlanadi.

Biz bu yerda o‘zbek ilm-fani yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan birgina ziyoli ayol haqida to‘xtaldik, xolos. Aslida esa bunday jadid ayollar juda ko‘p bo‘lgan. Afsuski, sobiq tuzum qatag‘oniga uchragan jadid bobolarimiz bilan yelkama-yelka turib fidoyilik ko‘rsatgan bu ayollar haqida deyarli ma’lumotlar mavjud emas. Biroq keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy tariximizning muhim qismi bo‘lgan jadidchilik harakati va uning namoyandalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Demak, yaqin yillarda bu borada yana ko‘plab tadqiqotlar olib borilib, haqiqatlar oydinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati va uning ayol namoyandalari o‘z davrining ijtimoiy o‘zgarishlarini boshqarishda muhim rol o‘ynagan va bugungi kunda ularning merosi milliy madaniyatimiz hamda tariximizda chuqur iz qoldirgan.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
Munojat USMONALIYEVA,
TDSHU xorijiy til va adabiyot fakulteti 1-bosqich talabasi.



ADABIYOT GULSHANI

G‘AFUR G‘ULOM IJODIY MEROSI: KECHA VA BUGUN

XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri — akademik G‘afur G‘ulom ijodi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. 1903-yil 10-may kuni Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontegi mahallasida dehqon oilasida o‘zbek adabiyotiga atoqli shoir, yozuvchi va mohir tarjimon bo‘lib yetishgan ijodkor dunyoga keladi.

Adibning bolalik va o‘smirlik yillari oson kechmagan: u to‘qqiz yoshida otasidan, o‘n besh yoshida esa onasidan yetim qoladi. Dastlab mahallasidagi maktabda, so‘ng rus-tuzem maktabida tahsil oladi. Yoshligidan hayot sinovlaridan o‘tib, tunukasozlik, kosibchilik kabi kasblarni egallaydi. Keyingi yillarda harf teruvchi, muallim sifatida faoliyat yuritadi, umrining pirovardida esa Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi.

Adabiyot olamidagi ilk qadamini bolalar uchun she’rlar yozishdan boshlagan shoir butun ijodi davomida yosh avlodning o‘sib kamol topishini madh etuvchi qator asarlar yaratdi. Umuman olganda, G‘afur G‘ulom ijodini uch yirik davrga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Ijodining birinchi davrida, ya’ni o‘tgan asrning 30-yillarida adib shoir, dramaturg va hikoyanavis sifatida qalam tebratib, o‘z asarlari orqali xalq hayotini, tarixini, o‘sha davr kishilarining turmush tarzi va ruhiy olamini yoritib berdi. Bu davrda “Dinamo”, “Sizga” she’riy to‘plamlari, “Jo‘rabo‘za” hikoyalar to‘plami, “Netay”, “Tirilgan murda”, “Yodgor” qissalari hamda “Muxbir sudi” pyesasi nashr etildi.

Barchamizga tanish va sevimli bo‘lgan “Shum bola” qissasi ham mazkur davrning eng sara asarlaridan biri sanaladi. Qissaning bosh qahramoni obrazida hayotdagi har qanday mushkul sinovlarni uddaburonlik bilan yengib o‘ta oladigan, sho‘x va zukko bola siymosi katta mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu asar avtobiografik xarakterga ega bo‘lib, umuminsoniy g‘oyalar asosida yozilgan.

O‘tgan asr 40-yillarining ikkinchi yarmi hamda 50-yillarda shoir ijodida yangi davr boshlanadi. Bu davrda uning bir qator she’riy to‘plamlari nashrdan chiqadi. Umuman olganda, shoirning ilmiy va badiiy merosi nihoyatda keng bo‘lib, unda yoritilgan ijtimoiy masalalar bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli qaroriga muvofiq, Adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan atoqli yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodini chuqur o‘rganish hamda targ‘ib qilish oliy ta’lim muassasalariga yuklatilgan. Akademik G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodini o‘rganish vazifasi Toshkent davlat yuridik universitetiga biriktirilgan. Talabalar va xodimlar tomonidan adib merosini o‘rganish, uni abadiylashtirish maqsadida ilmiy-ommabop maqolalar chop etilmoqda, asarlari sahnalashtirilmoqda va xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda. Shuningdek, “G‘afur G‘ulom izdoshlari” to‘garagi hamda turli tanlovlar tashkil etilmoqda.

Adib asarlari bo‘lajak huquqshunoslar uchun ham o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tamoqda. G‘afur G‘ulom ijodida u yashagan davrdagi insonlar hayoti, ijtimoiy-siyosiy vaziyat yorqin aks etgan. Xususan, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida XX asr boshlaridagi jamiyat hayoti, qiyinchiliklar, odamlarning tirikchilik uchun og‘ir yo‘llarga kirishga majbur bo‘lgani tasvirlanadi. Roqiya bibining o‘g‘riga qarata aytgan: “O‘g‘rigina bolam, biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi?” degan so‘zlari kitobxonni yomon yo‘llardan tiyilishga chorlaydi.

Aytish mumkinki, o‘g‘rilik nafaqat axloq tamoyillariga, balki huquqqa ham zid. Huquq normalari qonun bilan belgilansa, axloq me’yorlari jamiyat ongida shakllanadi va jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. G‘afur G‘ulom qisqa hikoya orqali o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, o‘zgalar haqqini yeyishni qoralab, halollik va adolatga da’vat etadi.

O‘zbekiston xalq shoiri, Fanlar akademiyasining akademigi G‘afur G‘ulomning ijodiy merosi xalqimizning bebaho ma’naviy xazinasiga aylangan. Ishonch bilan aytish mumkinki, uning asarlari bugun ham yoshlarni tarbiyalashda, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. G‘afur G‘ulom merosi — bu nafaqat o‘tmish xotirasi, balki bugun va kelajak uchun yo‘lchi yulduzdir.

Sevinch MAHMUDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi.

ILM MASKANI

MAKTAB KUTUBXONASI MENING ILHOM MANBAIM

Maktab kutubxonasi ta’lim jarayonining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, o‘quvchilarning bilimini oshirish, mustaqil fikrlash va o‘rganish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kutubxona fondi darsliklar, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam boyitib boriladi.

Maktab kutubxonasi o‘quvchilarga tinch va qulay muhitda darslarga tayyorlanish, referat va loyihalar ustida ishlash imkonini yaratadi. Ayrim kutubxonalarda elektron resurslar va internetdan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu axborot izlash jarayonini yanada yengillashtiradi.

Men Bekobod tumani “Uyas” mahallasidagi 46-umumta’lim maktabida tahsil olaman. Maktabimizdagi eng sevimli va qadrli maskanim bu kutubxonadir. Bu yerda o‘zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblar, zarur o‘quv qo‘llanmalari jamlangan. Shinam va osoyishta muhit o‘quvchini mutolaa qilishga chorlaydi.

Kutubxonachimizning mehribonligi va doimiy ko‘magi kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishimizni yanada oshiradi. Yil davomida o‘tkaziladigan “Eng faol kitobxon” ko‘rik-tanlovi, adabiy kechalar va she’rxonlik musobaqalari esa o‘quvchilar faolligini kuchaytiradi.

Demak, maktab kutubxonasi — bilim, tafakkur va ma’naviyat maskani. U o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, kitobga bo‘lgan mehrini mustahkamlaydi.

Nozigul TO‘RAQULOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabi 9-“A” sinf o‘quvchisi.





Sultonboy DEHQONOV olgan surat.
21.12.2025.

BEKOBOD TUMANI IJODKORLARI IJODIDAN

XOTIROT

Pag‘a-pag‘a yog‘ayotir qor,
Kuzataman men uni behol,
Yuragimda jilmayar bahor,
Xayolimda bir sohibjamol.

Yodga kelar, o‘shanda ilk bor,
O‘n yettida ekanda yoshim.
Olam bo‘ldi men-chun beg‘ubor,
Uni atab “baxtim, quyoshim”.

Sochlariga uzatganda qo‘l,
U degandi: “qo‘ying, kerakmas,
Oldimizda hali qancha yo‘l,
Yo‘llar esa azobsiz bo‘lmas”.

Yodga tushar hayot karvoni,
Olib ketdi meni yiroqqa.
Seni esa qo‘msagan oni,
Odat bo‘ldi yodga olmoqqa...

Umid bilan yashardim ishon,
Uchrashamiz, deya men qayta.
Muhabbatga hijron imtihon,
Ayriliqsiz sevgi bor qayda?

...Bu kun barin angladim kechir,
Ayro ekan bizning yo‘limiz.
Faqatgina o‘rtanar bag‘ir,
Yodga tushsa qorli tunimiz.

Pag‘a-pag‘a yog‘ayotir qor,
Yuragimda jilmayar bahor.
Kuzataman men uni behol,
Hayolimda bir sohibjamol.

Abduvayit SHERMANOV.

OTA DUOSI

Otang bo‘lsa oy-yulduzlar poyingdadir,
Bor imkoning qo‘l uzatgan joyingdadir.
Tuproq olsang hovichingda to‘kilgaydir,
Otasi yo‘q qaddi erta bukulgaydir.

G‘am-alamdan ko‘zda yoshing to‘kilmaydi,
Qoyadek tut mag‘rur qadding bukilmaydi.
Duo olgan kam bo‘lmaydi otasidan,
Uzoqlashar qilgan ayb-u xatosidan.

Ota o‘rnin bosolmagay hech bir inson,
Duosin ol, qaytarmagay yetti osmon.
Borligida avaylab yur, bilgin qadrin
Xudo o‘zi qo‘llagaydir yigit mardin.

Oila – qo‘rg‘on, sen qo‘rg‘onda bo‘l torozi,
Derlar: Ota rozi bo‘lsa, Xudo rozi.
Arslon kabi qaytmas bo‘lsin qilgan ahding,
Otang qilgan duodadir sening baxting.

Esonali YADGOROV.

BEKOBOD

Tarixing o‘zgacha bitgandir taqdir,
Beklar obod etgan jannatmakonsan.
Guvohi bo‘lganlar barchasi haqdir,
Gul shahrim bugun sen sharafga konsan.

Odamlari sodda, mehnatkash hamon,
Atrofi tog‘-u dasht, bog‘-u bo‘stondir.
Sohibqiron izin izlab har tomon,
Qadim shamolining o‘zi dostondir.

Bobur bobom qutlug‘ qadami yetgan,
Otlar taqalangan qishloqlaring bor.
Sening sharafingga dostonlar bitgan,
Ajdodlar ruhlari hamon madadkor.

Qadimda cho‘l maskan, bugun obod yurt,
Uzoq ketsam ezar sog‘inch firog‘i.
Chempion o‘g‘lonlar g‘alabasidan,
Balanddir dunyoda o‘zbek bayrog‘i.

Bir yoning tog‘lar-u adirga makon,
Bir yoning chamanzor, bog‘laring obod.
Hamisha yashna, hur, Vatanim omon,
Ona yurtim, ota makon – Bekobod.

Muyassar ARZIMATOVA.

YANGI KO‘PRIK

Ushaldi asriy orzu,
Buni yillab kutgandik.
Azim Sirning ustidan,
Qurildi yangi ko‘prik.

O‘nglanmoqda xayollar,
Niyat bo‘ldi ijobat.
Oqko‘ngil quruvchilar,
Ko‘rsatdilar shijoat.

Xizmat qilar inshoot,
Bir yomon, ham yaxshiga.
Bunday zamon hech kimni,
Kirmagandi tushiga.

Markaz bo‘ldi bir qadam,
Ozaydi xalqning yuki.
Podshoni qilar duo,
Kim yozma, kim og‘zaki.

Omon bo‘lsin yurtboshi,
Xursand bu kun keksa, yosh.
Har bir ezgu ishida,
Yaratgan bo‘lsin yo‘ldosh.

Mirzaqul BERDIQULOV.

VATANIMNI SOG‘INAMAN

Bahor hidi tark etmasin chamanimni,
Asra Alloh, har bir dur-u madanimni.
Yiroqlashsam o‘rtar doim jon-dilimni,
Vatanimni sog‘inaman, o‘z elimni.

Ustozlarim tilidagi gavharlarim,
Baxtim kular senla shom-u saharlarim.
Birdek yoqar ovul, qishloq, shaharlari,
Vatanimni sog‘inaman, o‘z elimni.

Qayda bo‘lmay onam kabi mehri tortar,
Qir-u adir dashtlarining sehri tortar,
Yildan yilga butun dunyo mehri ortar,
Vatanimni sog‘inaman, o‘z elimni.

Sening bilan to‘lar mening yarim ko‘nglim,
Chamanzorga aylanadi o‘ng-u so‘lim.
Kelajakka ochilganda yorqin yo‘lim,
Vatanimni sog‘inaman, o‘z elimni.

Kerak emas menga hatto, London, Parij
Vatan desa asli o‘zbek jam bo‘larmish.
Xalqim uchun xizmat qilmoq eng buyuk ish,
Vatanimni sog‘inaman, o‘z elimni.

Aziza SOLIJONOVA,
Bekobod tumani 13-umumta’lim maktabining 8-“B” sinf o‘quvchisi.

QOLGAN ISHGA QOR YOG‘AR

Bitta qizcha bor edi,
Qaytdi maktabdan bugun.
Hovli, qozon-o‘choqni,
Tartibga solmoq uchun.

Xokondoz oldi qo‘lga,
Obdon ishga kirishdi.
Onajoni kelguncha,
Tugatmoq bo‘ldi ishni.

Idish-tovoq bir tomon,
To‘zigan oshxona ham.
Xonada hali zamon,
Oila bo‘lar jamuljam.

Shunda qizning ko‘ziga,
Bu ham mushkul ko‘rindi.
Qo‘ldan tushib supirgi,
Harakatdan erindi.

Keksalar aytar doim,
Tayyor bo‘l yoz-qishingga.
Yodda tut qorlar yog‘ar,
Qolib ketgan ishingga.

Ziyoda TOLIBJONOVA,
Bekobod tumani 13-umumta’lim maktabining 9-“A” sinf o‘quvchisi.

Sahifani Mirzabek Sherbekov tayyorladi.

2026-YIL “MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI”

1-yanvar - Yangi yil bayrami;
8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni;
21-mart - Navro‘z bayrami;
9-may - Xotira va qadrlash kuni;
1-sentyabr - Mustaqillik kuni;
1-oktyabr- O‘qituvchi va murabbiy kuni;
8-dekabr - Konstitutsiya kuni;

Ramazon va Qurbon hayitlari ham dam olish kuni hisoblanadi.



Yanvar

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

Fevral

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	

Mart

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					

Aprel

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30			

May

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

Iyun

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

Iyul

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

Avgust

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30
31						

Sentyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
	1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30				

Oktyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

Noyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

Dekabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
	1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

ISH BERUVCHILAR VA ISHGA KIRISH ISTAGIDA BO‘LGANLAR DIQQATIGA!

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun new.osonish.uz platformasi ishga tushdi va foydalanishga tayyor. Platformadan foydalanish to‘liq ixtiyoriy bo‘lib, bu jarayon bo‘yicha hech qanday majburiyat yoki ma’muriy talablar mavjud emas.

Platformaning ish beruvchilar uchun qulayliklari:

- Ish beruvchilar Yagona milliy mehnat tizimidagi shaxsiy kabineti orqali new.osonish.uz platformasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib, vakansiyalarni joylashtirishi va rezyumelar bilan tanishishi mumkin;
- Korxona o‘zining filiallari va tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha vakansiyalarni joylashtirish imkoniyatiga ega;
- Platformada bir vaqtning o‘zida bir nechta HR mutaxassisi vakansiyalar bilan ishlashi, nomzodlarni ko‘rib chiqishi va saralashi mumkin;
- Vakansiya talablariga mos ish qidiruvchilar sun’iy intellekt yordamida avtomatik tarzda tavsiya qilinadi;
- Vakansiyalar, nomzodlar va murojaatlar holatini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyati mavjud.

Platformaning ishga kirish istagida bo‘lganlarga yaratgan qulayliklari:

- rezyumeni oson va tez shakllantirish;
- sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari orqali eng mos vakansiyalarni avtomatik ravishda olish;
- maosh, ish joyi va shartlar bo‘yicha vakansiyalarni solishtirish;
- ish beruvchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish;
- ish topish jarayonini tezlashtirish.

Rezyumeni puxta, to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirish ish topishda eng muhim qadamlardan biridir. Rezyumega aniq va batafsil ma’lumot kiritilsa, ishga kirish istagida bo‘lgan fuqarolarga taklif etiladigan vakansiyalar shuncha mos bo‘ladi.

Ushbu QR-kod orqali ish beruvchi va ish qidiruvchini bog‘lovchi ishonchli raqamli platforma ***https://osonish.uz***ga kirishingiz mumkin.

Bekobod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi.

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1700 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash'al" mahallasi, Markaz -1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497